

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Raxmatillayev Abror O'rol o'g'li

*Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti
"Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq talimi" yo'nalishining 4-bosqich talabasi
abrorraxmatillayev328@gmail.com*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada, ijtimoiy-gumanitar fanlarning tasnifi, muammolari hamda mavjud muammolarni bartaraf qilish shuningdek, sohani yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha bir qator taklif va mulohazalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Ijtimoiy-gumanitar fanlar, inson va jamiyat, axloqiy tamoyillar, tadqiqot dasturi, tarix, sog'lom tafakkur, intellektual, ijtimoiy va madaniy faoliyat, Rossiya imperiyasi, renessans, jadidchilar, texnologiya.*

CURRENT PROBLEMS SOCIAL AND HUMANITARIAN SCIENCES

Abstract: *This article describes the classification social and humanitarian sciences. Also, a number of proposals were made to eliminate current and humanitarian sciences and to bring the field to a new level.*

Key words: *Social and humanitarian sciences, man and society, ethical principles, research program, history, healthy thinking, intellectual, social and cultural activities, Russia Empire, Renaissance, modernist, technology.*

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan XXI asrda insoniyat hayotida har bir shaxsning o'z o'rnini va qadr-qimatini topishida hamda tafakkurini shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanning o'rni va ta'sir darajasi nihoyatda yuqori hisoblanadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning negizida jamiyat va inson haqidagi tushunchalar yotadi. Shunday ekan, biz ijtimoiy-gumanitar fanlarni inson va jamiyat haqidagi fanlar desak mublag'a bo'lmaydi. Bu soha boshqa sohalardan asosiy farqi ham shunda, ya'ni insonda davlatga, jamiyatga va jamiyatning bir bo'g'ini hisoblangan insonga bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Mazmun jihatidan esa odob va axloqiy tamoyillarni ifodalovchi qarashlar va tushunchalarni o'zida aks ettiradi. Bu soha bir butun holda yuqorida aytib o'tilganlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Shunday ekan bu sohani alohida, ikki qismga ajratgan xolda tarif berib o'tsak:

Ijtimoiy fanlar ta'rifi: *Ijtimoiy fanlar, o'z nomidan ko'rinib turibdiki, jamiyat haqidagi fan yoki inson xati-harakatini ijtimoiy-madaniy jihatlarini o'rganadigan fandir. Shu bilan birgalikda, ijtimoiy fanlar oilalar, guruhlar va jamolarda yashaydigan odamlarning qanday yashashi, ularning o'rtasidagi o'zaro munosabati, o'zini tutishi, nimalarni kiyishlari, o'zaro muloqotda qaysi tildan foydalanishi, qanday urf-odatlariga rioya qilishi, diniy mansubligi va qanday mafkurani targ'ib qilishi kabi kundalik turmushida ro'y beradigan holatlarni o'zida aks ettiradi.*

Bu faning asosiy maqsadi – jamiyatda mavjud muammolarga yechim topish bilan bir qatorda jamiyatning barcha qirralarini tushunish hamdir.

Gumanitar fanlar ta'rif: Gumanitar fanlar insoniyat jamiyati va madaniyati bilan bog'liq bo'lib, asosan tahliliy yoki tanqidiy bo'lgan sifatli usullardan foydalanadigan fanlar majmuasidir. Gumanitar tipdagi fanlarni o'rganishning asosiy mavzusi sifatida insonning o'zi, shuningdek, insoniyatning o'tmishi va hozirgi davrdagi fikrlari, ijodlari, rivojlanishi, harkatlari hamda uning ma'naviy, aqliy, axliqiy va boshqa hayot sohalarini qamrab oladi.

Gumanitar fanlarning maqsadi – insondagi nuqsonlarni va bu nuqsonlarni yaxshilash yo'llarini aniqlashga qaratiladi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar tasnifida uchta yondashuv qo'laniladi:

birinchidan, o'rganish mavzusiga ko'ra;

ikkinchidan, tushuntirish usuliga qarab;

uchinchidan, tadqiqot dasturiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ayni damda, ijtimoiy-gumanitar fanlarning tasnifi ularni qulash sohasining kengligi va xilma-xilligi, shuningdek, ijtimoiy hayot sohalarining bir-biriga yaqin aloqasi tufayli kam ishlab chiqilgan. Masalan, tarix fanini ham ijtimoiy, ham gumanitar fan sifatida tasniflash mumkin[1].

Bugungi kunda, biz ijtimoiy va gumanitar soha doirasiga qanday fanlar keritishimiz mumkin. **Ijtimoiy fanlar guruhiga**, asosan, iqtisodiyot, sotsiologiya, huquqshunoslik, siyosatshunoslik, geografiya, demografiya, tarix, antropologiya va boshqalarini qamrab oladi va bu yerda o'rganish mavzusi inson jamiyati hisoblanadi. **Gumanitar fanlar guruhiga** esa shaxsni kelib chiqishi, bu shaxs doimiy muloqotda bo'lgan yaqinlari (do'stlari, qo'shnilari, ota-bobobosi va qarindoshlik jihatidan bog'langan yaqinlari) bilan bo'lgan munosabatini tushuntirishga harakat qiladi. Gumanitar tipdagi fanlarga falsafa, tilshunoslik va til, psixologiya, huquq, adabiyot va san'at kabi fanlari keradi. Bu yerda asosiy o'rganish mavzusi insonning axloqiy, intellektual, ijtimoiy va madaniy faoliyat subyekti sifatida o'rganiladi.

Ijtimoiy-gumanitar sohaning dolzarb muammolari, undagi mavjud kamchiliklar va Rossiya imperiyasining manfaatlari natijasida bu sohaning chiklanishi haqida so'z yuritadigan bo'lsak: Yer yuzida odamzod yaralibdiki, uning aqliy va jismoniy mehnati natijasida har qanday sohaning rivojlanishi bilan birgalikda undagi muammolar ham yuq emas. Shunday ekan, ijtimoiy-gumanitar sohada ham kamchiliklar mavjud bo'lib, bugungi ijtimoiy munosabatlar o'sib borayotgan bir davrda, jamiyatimizda mas'uliyat o'rnini loqaydlik va dangasalik hissi egallash ro'y berayotgan o'zgarishlarga nisbatan beparvo bo'lish illatlarini o'ziga kasb qilib olayotgan kishilarning ko'payishi har birimizni befarq qoldirmaydi. Ayniqsa, jamiyatimizda bu kabi holatlar ijtimoiy-gumanitar soha vakillarini ko'proq tashvishga soladi. Chunki, sohaning bu kabi holatlari aholining ijtimoiy ruhiyati va sog'lom tafakkuriga tasiri zararli bolib, aholi o'rtasida ijtimoiy va ma'naviy muhitning buzilishiga sabab bo'ladi. Jamiyatimizning ijtimoiylashgan aholi orasida ro'y berayotgan bir qator illatlar, jumladan, sotqinlik,

yolg'onchilik, o'g'rilik, tovlamachilik, giyohvantlik va zo'rvonlik kabilarning tobora ortib borayotganligi, bu sohadagi mazkur muammolarning dolzarbligini o'zida namoyon qiladi.

Bu kabi muammolarning vujudga kelishi quyidagi sabablar bilan tasniflanadi:

- Ijtimoiy-gumanitar sohaga yetarlicha e'tibor qaratilmayotganligi va bu sohaning samaradorligini oshirishga qaratilayotgan targ'ibot-tashviqot ishlarining past darajada ekanligi;

- Ijtimoiy-gumanitar soha mutaxassislarini tayyorlash hamda bu soha pedagoglarini malakasini oshirish jarayoni voqelikdan ortda qolmoqda;

- Ijtimoiy-gumanitar soha fanlarida zamonaviy ruhni ifodalovchi texnologiyalardan foydalanish darajasining pastligi kabilar nazarda tutiladi.

Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo xonliklarining zabt etilishi ushbu hududlarning tanazzulga yuz tutishiga hamda imperiyaning mustamlaka davrida jahonning rivojlangan davlatlaridan ko'p sohalarda orqada qolishiga, milliy qadriyatlar va urf-odatlarining toptalishiga olib keldi. Maorif sohasida va ijtimoiy-gumanitar sohasida ham imperiya manfaatlaridan kelib chiqib, mahalliy aholini savodsizlikda, qoloqlikda tutib turishga qaratilgan siyosat olib borildi. Har bir jamiyatdagi o'zgarishlar o'z davrining tarixiy sharoitidan kelib chiqib namoyon bo'ladi. Bu o'zgarishlar tarixiy shaxslar, mutafakkir va allomalar, ayniqsa, ziyolilarning o'rni katta bo'lib, ularning har biri o'ziga xos ilg'or g'oyalarni ilgari suradi. Ular jamiyatdagi ijtimoiy-gumanitar sohadagi muammolar va kamchiliklarni hal qilish yo'llarini topishga harakat qiladi. Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning "har bir inson o'z tarixini, kelib chiqishini bilmasdan turib, kelajakka qadam quya olmaydi"[2] degan jumlasini aytib utsak mubolag'a bo'lmaydi. Shunday ekan, tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, 3-ming yillik tarixga ega ko'hna Turon zaminida IX - XII asrlarda yuz bergan birinchi ma'rifiy uyg'onish nomi bilan mashhur bo'lgan renessanes davrini ko'rishimiz mumkin. Bu davrda ijtimoiy-gumanitar tipidagi fanlariga o'zining nazariy bilimlar va amaliy ko'rsatmalari bilan katta hissa qo'shgan tarixiy shaxslarni misol qilishimiz mumkin. Abu Nasr Farbiy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sino kabi allomalarimiz falsafa, sotsiologiya va psixologiya fanlaridagi jamiyat va inson tushunchalariga bergan izohlari hamda Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek va Bobur kabi buyuk siymolarimizning adabiyot, fors-tojik va turkiy tillardagi izlanishlari natijasida vujudga kelgan meroslari bunga misol bula oladi.

XIX asrning 2-yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan qaramlikka va ma'naviy tanazzulga uchragan xalqimiz orasidan, bu botqoqlikdan o'zlikni anglagan holda milliy uyg'onish harakati ostida birlashgan ma'rifatparvar ziyolilarimiz yetishib chiqqan. Ma'rifatparvar jadidchilarning asosiy maqsadi Turkiston o'lkasida yangi usul maktablarni tashkil qilish va ilm dargohida yoshlarga aniq, tabiiy fanlar bilan birgalikda ijtimoiy-gumanitar tipidagi fanlarni ham o'qitish hamda milliy sog'lom tafakkurga ega kadalarni tayyorlash edi. Bu orqali jamiyatda ma'naviy jihatdan

sog'lom,o'z haq-huquq va erkinligi uchun kurasha oladigan fuqarolarni yetishtirish hamda millat ozodligiga erishish bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish va bu soha fanlariga jiddiy e'tibor qaratish orqali jamiyatimizda shiddat bilan o'sib borayotgan ijtimoiyilashuv natijasida yuzaga kelayotgan salbiy illatlarning oldini olishimiz muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.[1] Gloria Harrison. "Ijtimoiy va gumanitar fanlar qanday tasniflanadi". 25.08.2023 harrison@scienceforming.com

2[2]. I.Karimov. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". "Sharq" nashriyoti, Toshkent. 20.08.1998.

3. Soyibjon Tillaboyev, Akbar Zamonov "O'zbekiston tarixi" (Ummumiy o'rta ta'lim maktabining 9-sinf uchun darslik), "Sharq" nashriyoti, Toshkent 2019.

4. Asadbek Sayfullo o'g'li Zairov, "Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyati", aprel 2023.

5. Абдурахим Эркаев, "Манавиятшунослик", "Манавият" нашриёти, Тошкент.